

IBN ARABIYNING INSON BORLIG'IGA DOIR QARASHLARI: ILM, RUH VA HAQIQAT

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi

Osiyo xalqaro universiteti Tarix va filologiya kafedrasi o'qituvchisi

mohlaroyimyarashova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14748250>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Arabiyning hayoti va faoliyati butunlay so'fiylik yo'li bilan chambarchas bog'liqligi, uning tarjimai holi va so'fiylik ma'rifatining rivojlanishi, asarlarida keltirilgan tasavvufiy g'oyalar, borliq, haqiqat va inson tushunchalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, haqiqat, borliq, iroda, falsafa, zikr, ma'rifat, ma'naviyat, qadriyat, hikmat, taraqqiyot.

Ibn Arabiyning hayot yo'li tom ma'noda so'fiylik yo'lidir. Bunday nuqtai nazar bizga uning tarjimai holi va uning so'fiylik ma'rifatining rivoji to'g'risidagi ma'lumotlariga alohida e'tibor qaratishga imkon yaratadi. Buning uchun birinchi navbatda so'fiylikning mohiyati va u bilan bog'liq bo'lgan haqiqat, borliq va inson kabi tushunchalarni tahlil qilib chiqish kerak bo'ladi.

Ibn Arabiy "Ruhu-l-qudus fi muhasabati-n-nafs" asarida ko'plab shayxlar bilan qilgan o'zaro aloqalari haqida so'z yuritadi. Mutasavvif shayxlarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini keltiradi. Ibn Arabiy Abu Ja'far al-Uraybiy bilan suhbatni eslaydi: "Uning yoniga borganimda u menga qarab dedi: "Xush kelibsan, yaxshi xulqli yigit. Sendan boshqa barcha bolalarim meni yoqtirayotgandek ko'rsatadilaru mening ehsonimdan xursand emaslar. Buni sen ham bilasan, bu hammaga ma'lum. Xudo xohlasa, hali bu haqda eslaysan". Ibn Arabiy ustozining ilm berish uslubi haqida quyidagi fikrni keltiradi: "Ustozim meni yaxshi ko'rar edi, lekin buni sezdirmaslikka harakat qilar edi. Ustoz boshqalar yoniga borayotganda meni tashlab o'tar, majlislarda boshqalarni maqtasa, mening kamchiligimni aytar va hatto so'kar edi. Men bilan ko'pdan beri uning qo'l ostida va xizmatida bo'lgan yaqin o'rtoqlarim ham ularning ichidagi eng iqtidorli ekanligimni bilib turishsada, meni irodasizlikda ayblashar edi". Mutasavvif piri Solih al-Aduvviyning xayotidagi voqealar tug'risida aytgan fikrlarini kuyidagicha keltirib o'tadi: "U bizga qattiq bog'lanib qolgan va faqat bizga qanday qilsa, ko'proq foydasi tegishi mumkinligi haqida o'ylar edi. U menga kelgusi hayotimda kerak bo'ladigan narsalar haqida gapirib berar edi. Keyinchalik uning barcha aytganlari bo'ldi" [1].

Ibn Arabiy Abu Abdulloh ash-Sharafiyni ustoz sifatida bilib, uni juda salobatli bo'lganini, uning o'zi birinchi bo'lib, so'z ochmasa, boshqalar so'z boshlashga jur'at qila olmasligi aytib o'tadi: "Men undan o'zimni duo qilishimni so'radim, U duo qildi va men bilan avvalgilardek suhbatlashib o'tirdi. Men undan hurmat izzatni va ko'plab boshqa xulqlarni o'zlashtirganman. Uning menga foydasi ko'p bo'lgan".

Ibn Arabiyning Borliqning umumiy masalalariga oid asarlari qatoriga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin: "Risolai vujudiyya" الرسالة الوجودية ("Vujud haqida risola") - bu risolada muallif tavhid, vahdatul-vujud, ya'ni Xudoning yagonaligi, mavjudligi haqida Qur'on oyatlari va hadisi sharifdan ma'lumotlar keltirib tasavvufiy g'oyalar bilan bog'lagan. Muallif asarni quyidagi jumlar bilan boshlaydi: Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning "Kim o'zini anglasa, Rabbisini anglaydi", degan hadisining ma'nosi sharhlaydi. Mutasavvif risolani hol ilmiga o'tganlar, mohiyatni anglaganlar uchun yozilganligini aytadi. Ibn Arabiy bu risolasini omma uchun emas, balki xoslar uchun, yanada to'g'rirog'i o'z ta'limoti tarafdorlari va izdoshlari uchun yozgan. Biroq asar falsafa va tasavvuf ilmiga qiziquvchilar uchun muhim manba bo'lib

xizmat qiladi.

“Risolatul vaqt val on” (“Onlar va vaqtlar to‘g‘risida risola”). Ibn Arabiy bu asarini soliklarning tariqat talablarini bajarishlarida va o‘z maqsadlariga erishishlarida vaqtning va vaqtning har bir bo‘lagining ahamiyati naqadar katta ekanligiga bag‘ishlagan. “Risola fi asroriz zotil ilohiyya” (“Ilohiy zotning sirlari to‘g‘risida”). Bu asarda Ibn Arabiy ilohiy zotning namoyon bo‘lish sirlari to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon qiladi. U bu olamni Ilohning so‘z bilan tushuntirib bo‘lmas “al-hazrat al-ahadiyya” (ya‘ni, “yagonalik sifati”)ning ismlar va sifatlarni o‘zida jamlagan “al-hazrat al-vohidiyat” (ya‘ni, “Birlik sifati”) ko‘rinishida namoyon bo‘lishi deb tushuntiradi.

Shuningdek, Ibn Arabiyning Inson borlig‘iga oid asarlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin: “Kitabut tadbirotil ilohiyya fi islohil mamlakatil insoniyya” (“Inson mamlakatini isloh qilishdagi ilohiy tadbirlar”). Ibn Arabiy bu asarini tuzilishiga ko‘ra boshqa asarlaridan farq qiladigan tarzda tuzgan. Muqaddimadan so‘ng boblar boshlanmay, olti o‘rinda “Xoslar uchun sir” mavzusi ostida o‘z fikrlarini bayon qilgan. Shundan so‘ng boblar boshlanib, tegishli tartibda fasllar ketma-ketligida yozilgan.

Asarning bosh maqsadi inson borliqning gultoji ekanligini bayon qilish bo‘lib, bunda mutasavvif insonning vujudga kelishini ilohiy jihatdan tasvirlaydi. Asar shunday boshlanadi: “Insonni O‘zining ilmi vujudidan ayni vujudiga chiqargan Allohga hamd bo‘lsin. Bilginki, U avval bir javharni yaratdi, unga jalol ko‘zi bilan boqdi. Javhar Uning nazaridan hayo qilib eridi, suv bo‘ldi. Ichida ilmining javhar-u durlari paydo bo‘ldi. So‘ngra suvdan ozginasini tarnov bilan mijoz novdasiga quydi. Shu novdani inson deb atadi va unga surat berdi. Suratning ko‘zini va qulog‘ini teshdi. Uning vujudida olami akbar, ya‘ni katta olamdagi hamma narsaning bor bo‘lishiga hukm qildi. Uning tadbirini qilib, miqdorini belgiladi” [2].

“Fususul hikam” (“Hikmatlarning shodalari”). Asar katta hajmli bo‘lib, unda Qur‘onda nomlari zikr qilingan payg‘ambarlarning har birining payg‘ambar qilib yuborilishidagi ilohiy hikmatlar ochib berilgan. Bu asar juda mashhur bo‘lib unga ko‘plab sharhlar yozilgan. Jumladan, yurtdoshlarimizdan Xoja Muhammad Porso ham Sharhi Fususul hikam nomli sharh yozgan. Asarning ikkinchi nomi Kitabu naqshil fusus (Qimmatbaho toshlardagi naqsh) ham manbalarda uchraydi. Asar Qur‘onda payg‘ambarlar to‘g‘risida kelgan oyatlarning ma‘nolarini ochish orqali har bir payg‘ambarning payg‘ambarlik silsilasidagi vazifasi va maqomi qanday bo‘lganligini ko‘rsatib beradi. Bu asarning ham umumiy mazmuni olamning yagona vujudan tashqarida emasligi g‘oyasi, ya‘ni “vahdatul vujud” g‘oyasidan iborat. Buni “Odam so‘zidagi ilohiy hikmat” deb nomlangan birinchi mavzuning o‘zida ko‘ramiz: “Bilginki, Allohning go‘zal ismlari, ya‘ni asmaul husnaning har biri o‘z zoti bilan olamning vujudini talab qiladi. Alloh ta‘olo olamni yaxlit jasad tarzida vujudga keltirdi va Odam alayhissalomga o‘z ruhini kiritdi, ya‘ni Odam bilan insoniy olamni vujudga keltirdi. “Va Odamga barcha ismlarni o‘rgatdi” (Baqara: 31-oyat.). Darhaqiqat, Ruh odamdagi quvvatlar vositasida badanni boshqaradi” [3].

Xulosa qilib aytganda, Ibn Arabiyning ilmiy merosi, uning so‘fiylik, borliq va inson haqidagi g‘oyalari tasavvuf ilmiga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan. Uning asarlari, xususan, “Risolai vujudiyya”, “Risolatul vaqt val on”, va “Fususul hikam” singari asarlar, tasavvufiy ilm va falsafaning rivojiga katta hissa qo‘shgan. Ibn Arabiyning “vahdatul vujud” g‘oyasi olamning yagona va bir-biriga bog‘liq borligini ta‘kidlaydi, insonning mohiyati esa ilohiy birligidan ajralmas ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Ibn Arabiyning ilmiy yondashuvi va uning o‘rgatganlaridan foydalanish,

soʻfiylikning chuqur mohiyatini anglashga yordam beradi. Usta-shayxlar bilan boʻlgan oʻzaro munosabatlari, insonning ichki olami va ilohiy sirlarga boʻlgan muhabbatni rivojlantirishga qaratilgan tajribalarini taʼkidlab, oʻz asarlarida ular orqali chuqur maʼlumotlar va hayotiy saboqlarni oʻrgatgan. Shuning uchun Ibn Arabiyning merosi nafaqat soʻfiylik, balki inson ruhiyatining ilmiy va falsafiy aspektlarini oʻrganish uchun ham zarurdir.

References:

1. Ibn Arabiy. Ruhul qudus fi muhasabatin nafs. Damashq: Matbaʼatu Nazr, 1994. 47-bet.
2. العربي الانتشار: بيروت. الثاني المجلد. الفتح عبد سعيد تقديم و تحقيق. عربي ابن رسائل. ص-291. 2002.
3. Ibn Arabiy. Kitabu naqshil fusus. 2001. 394-bet.
4. Turdiyev, B. S. (2019). The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 229-233.
5. Sobirovich, T. B. (2022). Uzbekistan is a Country of International Harmony and Religious Tolerance. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 32-35.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.